

**Bibirajab Yuldasheva
BuxDU dotsenti
Suhrob Hazratov
BuxDU magistranti**

O'ZBEKISTONDA SOVET HUKUMATI TOMONIDAN AMALGA OSHIRILGAN AGRAR TADBIRLAR

Annotatsiya: Ushbu maqola sovet hukumatining O'zbekistonda yuritgan agrar siyosati, yer-suv islohotlari, dehqon xo'jaliklarini tugatish, kollektivlashtirish, qulqlashtirish kabi voqealar tahlil etadi. Sovet hukumatining o'lkada asrlar davomida amlda bo'lib kelgan yer-suv mulkchiligi munosabatlarini kuch bilan o'zgartirishi, yer ilmini biladigan, yer "tili"ni tushunadigan dehqonlardan yerlarni tortib olinishi va ularni yerdan uzoqlashishi oqibatlari haqida ham to'xtalib o'tilgan. O'zbekistonda qishloq xo'jaligini yoppasiga kollektivlashtirish va "qulqlarni sindif sifatida tugatish" siyosati boshlang'ich davrdanoq zo'ravonlik bilan amalga oshirila boshlagan.

Kalit so'zlar: Yer-suv islohoti, harbiy kommunizm, jamoalashtirish, qulqlashtirish, Mashinatraktor stansiyalari (MTS), paxta yakkahokimligi, sug'orish inshootlari, agrar, yer-suv munosabatlari, yer egaligi, kolxoz, sovxozi.

Abstract: This article analyzes the most painful events carried out by the Soviet government in the Uzbek SSR - land and water reform, liquidation of peasant farms, collectivization, and kulakization. The Soviet government's policy of complete collectivization of agriculture and "ending the ears as a class" was implemented violently from the beginning. In order to forcibly enter the peasants into the collective farms, force was used against them and various means of repression were used.

Key words: Uzbek SSR, Soviet government, land and water reform, military communism, collectivization, kulakization, MTS, cotton monopoly, irrigation facilities.

Kirish

Ushbu tadqiqotning maqsadi O'zbekiston SSRda Sovet hokimiyati davrida yer va suvgaga bo'lgan munosabatni atroflicha o'rganishdir. Ma'lumki, Sovet hokimiyati boshqaruvni qo'lgaga olgach, butun SSSR miqyosda tub o'zgarishlar amalga oshira boshlaydi. Bu davrda tarixan butun hayoti yer va suvgaga chambar-chars bog'liq bo'lgan O'zbekiston SSR hududida yashovchi mahalliy aholi hayat tarzida keskin o'zgarishlar sodir bo'ladi. Barcha hududlarda yoppasiga kollektivlashtirish va qulqlarni sindif sifatida to'liq tugatishga qaratilgan bir qancha keskin choralar ko'rildi. Ushbu tub o'zgarishlar O'zbekiston SSRning keyingi butun tarixiga chuqriz qoldirdi.

Mavzuning dolzabrligiga kelsak, SSSR hukumatining O'zbekiston SSRda yer va suvgaga bo'lgan munosabatlar tarixini yoritib berish. O'sha davrda markazning o'zgarishlar olib borilayotgan hududlardagi mavjud sharoitni bilmasdan turib, zo'ravonlik orqali o'z siyosatini o'kazishi keyinchalik bir qancha mudhish xatolarga olib keladi. Yer va suvgaga bo'lgan munosabatni atroflicha o'rganish o'sha paytda sodir bo'lgan jarayonlarni keng va mantig'an ketma-ketlikda tushunishga imkon beradi.

Asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- Qishloq xo'jaligini yoppasiga jamoalashtirishdagi ziddiyatlarni tahlil qilish;

- Qishloq hududlardagi moddiy-texnikaviy ahvolni baholash;
- Qulqlashtirish siyosati va uning natijalarini o‘rganish;
- Paxta yakkahokimligining o‘rnatalishi va uning qishloq xo‘jaligining boshqa sohalariga ta’siri qay darajada ekanligini ko‘rib chiqish;
- O‘zbekiston SSRdagi sug‘orish inshootlar ahvolini tahlil qilish;
- Adabiyotlar va manbalarni o‘rganib chiqish;

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

1920-yillardan keying sovet O‘zbekistonining qishloq xo‘jalik ahvolini va ommaviy jamoalashtirishga bag‘ishlangan mahalliy ishlardan R.Aminova, M.Asqarov, T.Rizayev, D.Alimova, B.Nazirov, B.Yaqubova, O.Nazarov va boshqalarning asarlari o‘rganildi. Shuningdek, mavzuga doir xorijiy tadqiqotlardan A.Itkin hamda L.Kunukovalarning asarlaridan tahlil etildi.

Tadqiqot metodologiyasi.

O‘zbekistonda sovet hukumati tomonidan amalga oshirilgan yer va suvgaga oid masalalar bir tomonlama, faqat komunistik mafkura tomonidan yoritilgan. Bu masalaning bir qator salbiy, ziddiyatlari yashirilgan yoki soxtalashtirilgan Maqolada yer va suvgaga bo‘lgan munosabat qanday bo‘lgani xususidagi savollarga holislik, yetarli tahlilga qaratilgan tarixiy faktlar va voqealarni baholash hamda tanqidiy taxlil qilish, qiyoslash, xronologik metodlar asosida xulosalar chiqariladi.

Muhokama va natijalar

Mamlakatimiz tarixiga boqar ekanmiz, ommaviy jamoalashtirish o‘zining keng ko‘lami va xalqqa yetkazgan iztirobi bilan tarixda chuqur iz qoldirgan. Ayniqsa, 1917-yilgi inqilobdan keyin qishloq xo‘jaligini sotsialistik qayta qurishning oxirgi bosqichi hisoblangan “harbiy kommunizm” davrida qishloq xo‘jaligida deyarli o‘zgarishlar amalga oshirilmadi. Yer-suv islohoti davrida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish 1914-yilgi darajada nisbatan 1921-yilda 48,8 foizga qisqardi. Bunday salbiy holatlarning oldini olish uchun Turkiston, Buxoro va Xorazm xalq respublikalaridagi og‘ir ahvolni o‘nglash uchun markaziy guberniyalardan kredit ajratildi. Ularga kredit bo‘yicha 300 million so‘mdan ortiq mablag‘ ajratilgan edi, 1920-yilda esa 5 milliard so‘mga yaqin mablag‘ ajratildi. Bu mablag‘larning asosiy qismi paxtachilikni rivojlantirish uchun yo‘nalitirildi va ko‘rilgan choralar qishloq xo‘jaligida o‘zining muayyan samarasini bera boshladi. Paxtachilikni rivojlantirish uchun muhim omil bo‘lgan irrigatsiya ishlarini tiklash uchun dehqonlarni majburish mehnatga jalgan etish to‘g‘risida markaz tomonidan 1921-yilda dekret qabul qilinadi. Dekretga ko‘ra, o‘lkadagi irrigatsiya ishlarini harbiylashtirish boshlanadi va davlat budgetidan 1924-yilga kelib 6 260 ming so‘m hisobida mablag‘ ajratildi. Yer-suv islohati o‘tkazishdagi agrar o‘zgarishlarining eng asosiy yo‘nalishi – muvofiqlashtirilgan yer siyosatining o‘tkazilishi bo‘ldi. Tarixiy nuqtai nazardan 1921-1922-yillardagi islohotlarga baho beradigan bo‘lsak, bu islohotlarning tub mohiyati harbiy kommunizmga borib taqaladi. Bu islohot mehnat taqsimotiga asoslangan edi. Bundan tashqari, islohot davrida har bir o‘lkaning o‘ziga xos tomonlari va kuch ishlatish xato g‘oya ekanligi hisobga olinmadidi.

1925-yil dekabrda bo‘lgan O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining Favqulodda sessiyasi "Yer va suvni milliy lashitirish davlat tasarrufida olish to‘g‘risida" dekret qabul qildi. Dekretga binoan quyidagi tarzda yerlar batamom musodara qilinishi kerak edi:

- Qayerda turishidan qat'i nazar Farg'ona viloyatida 40 desyatinadan, Toshkent va Samarqand viloyatlarida 50 desyatinadan ortiq sug'oriladigan yeri bo'lgan mulk egalarining yerkari, jami jonli va jonsiz mulki bilan;
- Qishloq va ovullarda yashamagan, o'zlarini va oila a'zolaridan birortasi ham yerda ishlamaydigan shaxslarga qarashli yerkari, boshqa mol-mulki bilan;
- Vaqf yerkari, xo'jayinlari noma'lum yerkari.

Yer-suv islohotining ikkinchi bosqichi qishloqda asosiy kuch bo'lgan o'rtahol dehqon bilan aloqani mustahkamlash shiori ostida o'tdi. Farg'ona viloyatida 7 desyatina, Toshkent va Samarqand viloyatida 10 desyatina qishloqda asosiy kuch bo'lgan o'rtahol dehqonlar mulki saqlanib qoladigan bo'ldi. Bundan ko'zlangan maqsad ularni Sovet hokimiyatining tayanchiga aylantirish edi. Yer-suv islohoti natijasida O'zbekistonda jami 4801 "pomeshchik" tipidagi xo'jaliklar tugatildi. 13036 ta badavlat mulkdorlaring ortiqcha yerkari tortib olindi. Respublikaning yer fondiga 474393 desyatina yer qo'shildi.

VKP(b) XV syezdi (1927) belgilab bergen qishloqda kollektivlashtirish siyosati va uni izchil amalga oshirish butun mamlakatda bo'lgani singari O'zbekiston va uning xalqi uchun ham asosiy amaliy vazifaga aylangandi. Totalitar hokimiyat qishloqda kollektivlashtirish siyosatini zo'rlik, o'zboshimchalik va ma'muriy-buyruqbozlik usullari bilan o'tkazishga kirishdi. Jamoalashtirish jarayonida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy, jumladan, geografik joylashuviga deyarli e'tibor berilmagan. 1930-yillardan boshlab kollektivlashtirishni jadallashtirish boshlandi. Iqtisodiy jihatdan hali tayyor bo'imasada, ko'plab hududlar yoppasiga kolletivlashtirila boshlandi va sotsialistik musobaqa avjiga chiqdi. Bu hodisaning asosida kolxozlar sonini ko'paytirish yotardi va bu kolxozlar tuzishdagi ixtiyorilik tamoyilining buzulishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa Stalining 1929-yil 7-noyabrda bosilib chiqqan "Buyuk burilish yili" degan maqolasi jadal jamoalashtirishni "nazariy" jihatdan asoslab berdi. Unda keng qishloq ommasi kolxozlarga kirish uchun yetildi, deb aytilgan edi. Shunga muvofiq O'zbekistonda kolxoz qurilishi to'g'risidagi ilk qaror O'zKP (b) MKning 1929-yil 4-dekabr kuni bo'lib o'tgan yig'ilishida 1929-30-yillarda O'zbekistonda kolxoz qurilishi rejasini tasdiqlanishidan boshlandi. Ushbu yig'ilishda 1929-yilning dekabr oyidan boshlab kollektivlashtirishda Ittifoqdagi asosiy g'allakor rayonlarni quvib yetish, xatto o'zib ketish masalasi asosiy maqsad etib qo'yildi. Lekin bu vaqtida Ozbekistonda atigi 1,2 foiz kolxozlar mavjud edi. Kolvozga kirish uchun dehqonlar shaxsiy mehnat qurollari va uy hayvonlarini topshirishi lozim edi. Kolxoza 16 yoshdan yuqori aholi qabul qilinardi va, avvalo, ular a'zolik badalini to'lashi kerak bo'lardi. Bu jarayonlar ayrim hududlarda mahalliy aholiga to'lig'ich, aniq tushuntirilmadi va bu aholi orasida norozilik kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Kolxozlashtirishning jadallashtirilishi va sotsialistik poyga natijasida qisqa muddat ichida juda ko'plab kolxozlar tuzuldi, lekin bu kolxozlarning ko'pi faqat qog'ozda bor edi. Bu hol esa aholiga qimmatga tushdi va iqtisodiy tanglikni keltirib chiqardi. Iqtisodiy tanglikni tezlashtirganligini quyidagi raqamlardan bilsak bo'ladi. Misol uchun, 1929-yili respublikada 24200 dehqon xo'jaliklari kollektivlashtirilgan bo'lsa (2,4 foiz), 1930-yili 261845 dehqon xo'jaliklari (23,2 foiz) kollektivlashtirildi. 1931 yili 427536 dehqon xo'jaliklari (48,2 foiz) kollektivlashtirildi.

Bu davrda, mahalliy rahbariyat esa yuqorida kelgan topshiriqlarni ko'r-ko'rona bajarishga majbur edi. Ko'pchilik mahalliy amaldorlar hatto jarayonning asl mohiyatini tushunmas edi. Bag'dod tumandagi Chuvalin qishloq sovetiga kolxoz tuzish masalasida rayondan borgan vakil Muxammadjonov kolxozlarning mohiyatini ochib berish o'rniga dehqonlarga shunday deydi: "Kim agar kolxoza kirsa, dumba yog'ini yeydi, kim kirishni xohlama, qizil qalampir yeydi". Yoppasiga kollektivlashtirish sharoitida kolxozlani ixtiyoriy tashkil etish o'rniga ma'muriy-buyruqbozlik avj oladi. Mavjud sharoit va vaziyat bilan hisoblashmasdan yoppasiga kollektivlashtirish ketidan quvish susaymadi. Birgina 1930-yilning yanvar-fevral oylarida ommaviy ravishda kolxoza jalg etishning yanada tezlashuvi, kolxoz qurilishi masalasida

markazdan va joylardan olingen korsatmalarning noaniqligi tufayli yuz berdi. Tarixchi olima P. Aminovaning ta'kidlashicha, 1930-yilning bahoridan e'tiboran kolxozlarni tashkil etish ko'lamni yanada kengaydi. Jumladan, 1930-yil 20-noyabrdan e'lon qilingan faktlarga ko'ra, 2 oy mobaynida respublikadagi 61 ta tumanda 664 kolxoz tashkil etilgan degan ma'lumotni keltiradi. Vaholanki, 1930-yil martiga kelib respublikada kollektivlashtirish darajasi 47,8 % dan 27,5 % ga tushganligi haqiqatga yaqindir. Keyingi yillarda kolxoz kurishdagi xato va kamchiliklar faqat "tahlil" qilingan, lekin jiddiy biror bir chora ko'rilmagan.

1931-yilda O'zbekistonda kolxozlardagi xo'jaliklar soni 338482 tani yoki jami dehqon xo'jaliklarining 68,2 foizini tashkil etdi. 1932 yilda esa kollektivlashtirish 74,9 foizini tashkil etdi va xo'jaliklar soni 638131 taga yetdi. Bu ko'rsatkich O'zbekistonda kollektivlashtirish rasman tamomlanganligini e'lon qilishga asos bo'ldi.

Respublikamizda ommaviy jadallashtirish davrida qishloq xo'jaligining moddiy-texnik bazasini shakllantirish va uni takomillashtirish borasida bir qancha salmoqli ishlar olib borilgan. Bu borada dastlabki qadam 1929-yilda Asaka tumanida dastlabki MTSlarning tashkil etilishi bilan tashlandi. Biroq MTSlarning asosiy faoliyati va e'tibori paxtachilikni rivojlantirishga qaratilgan edi. Hattoki, bu borada markazning bir qancha qarorlari mavjud. VKP (b) MKning 1930-yil 10-sentyabrdagi "Mashina-traktor stansiyalarning qurilishi va boshqaradigan traktorlar hamkorligida barcha ishla davlat ixtiyoriga o'tkazilgan va MTSlarni siyosiy qarorlarni so'zsiz bajaruvchi tashkilotga aylantirish shu tariqa boshlandi. Shu bois, respublikamizda markazning xohish-irodasiga mos bo'lgan yangi qishloq xo'jaligini moddiy texnika bazasini yaxshilash maqsadida 1930-yilning 30-sentyabrida O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengash prezidiumining 1930-31-yillarida MTSlar qurilishi va traktor ishi vazifalari to'g'risidagi qaroriga ko'ra respublikamizda 1930-31-yillarda 48 rayonda 39 ta yangi MTSlar tashkil qilish va tashkil etilgan MTSlar faqat paxtachilikni rivojlantirishga xizmat qilishi lozimligi hujjatda alohida qayd qilingan.

Kolxozlarning moddiy-texnik bazasini ta'minlashda bir qancha xato va kamchiliklarga yo'l qoyilgan, bunga sabab toplanib qolgan muammolarga e'tibor bermaslik, kolxozlar tuzishdagi ko'zbo'yamachiliklar, har bir mintaqaning geografik va ichki muhitini hisobga olmaslik, dehqonlarning psixologiyasi bilan ishslashning ma'muriy buyruqbozlik bilan almashtirilganligi edi. Kollektivlashrish jarayonidagi chalkashliklar MTSlar faoliyatiga ham ta'sir etmay qolmaydi. MTSlar o'zining asl maqsadi hisoblangan kolvozlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash vazifasini bajara olmadi. MTS xodimlari asosan chaqiruv asosida markazdan keltirilgan va ular bilan oddiy kolxozchilar o'rtasida aloqaning yaxshi bo'limganligi MTSlardan ko'zlangan maqsadga erisha olinmaganligining yana bir sababi edi. O'zbekistonda mavjud MTSlar ish faoliyatini tahlil qilib chiqadigan bo'lsak, misol uchun, Asaka tumaniga borgan tekshiruvchilar aniqlagan ma'lumotlarga ko'ra, 1930-yil 2-fevraldan 5-fevralgacha bo'lgan vaqt mobaynida "MTS" da hammasi bo'lib 132 ta traktor mavjud bo'lgan, ammo MTS ish faoliyatida kamchilik va nuqsonlar mavjud bo'lib, ekish ishlari arafasida 40 traktor ta'mirga muhtoj holda hamda 22 ta traktor ta'mirlanayotgan bo'lib, ishga yaroqli 18 ta traktor borligi aktda qayd etilgan. Respublikaning boshqa hududlarida ham shunga o'xshash holatlar bo'lgan. Texnikaning nosozligi tufayli aholining ish quroli qo'sh omoch bo'lgan.

Natijada, MTSlar faoliyati markaz ko'zga tutganidek amalga tadbiq etilmadi. Belgilab berilgan rejalar asossiz olib borildi va bu rejalar haqiqatdan ancha yiroq edi, Azaldan o'z yerlarida mehnat qilib kelayotgan dehqonlarning fikri inobatga olinmasligi, geografik muhitning yaxshi o'rganilmaganligi, mahalliy aholini mensimasdan, hatto ularni kansitish natijasida qishloq xo'jaligiga juda katta salbiy ta'sir o'tkazildi va kollektivlashtirish arafasida qishloqlarning moddiy-texnik ahvoli talab darajasida emas edi.

“Quloq qilinish” degan atama Oktyabr to‘ntarishi va fuqarolar urushi paytida vujudga kelgan bo‘lib, bu so‘z asosan eski tuzum tiklash tarafdarlarini ham iqtisodiy jihatdan, ham jismonan yo‘q qilishni nazarda tutar edi. Quloq qilinganlarning aksariyati o‘rtahol dehqonlar bo‘lgan, bunga sabab esa quloq xo‘jaligini belgilashda davlat tomondan belgilab berilgan aniq mezonning yo‘qligida edi. Natijada, bu siyosat zo‘ravonlik tusini oladi. Misol uchun, Xitoy qishloq sovetiga Farg‘ona okrugidan yuborilgan vakil xalqqa “kim bo‘lishidan qat’iy nazar, agar bir kun bo‘lsa ham o‘z yerida odam yollab ishlatsa, quloq sanaladi” degan.

Manbalarda ta'kidlanishicha, 1930-yillarning boshlarida respublikaning paxta ekilmaydigan rayonlarida quloq xo‘jaliklarini sinf sifatida tugatish masalasi qo‘yilgan emas edi. Sababi, bu rayonlarda yoppasiga kollektivlashtirishni o‘tkazish uchun yatarli darajada shart-sharoit yetishmasligi ma'lum edi. Ammo bu masalaga siyosiy yondashish paytida yuqoridaq ko‘rsatmaga amal qilinmadni. Bundan tashqari, ko‘pgina joylarda partiya organlari kambag‘al dehqonlarning quloqlarga qarshi tarqoq harakatini boshqara olmadilar, degan xulosa haqiqatga yaqin emas, chunki bunday kurash bo‘lishi uchun siyosiy vaziyatning o‘zi yo‘q edi. Lekin olib borilgan noto‘g‘ri siyosat tufayli turli xil bebosliklar bo‘lib o‘tdi. Maqsad esa bitta – soxta kollektivlashtirishni tezlatish, paxta mustaqilligiga erishish yo‘lida har qanday zo‘ravonlik, siyosiy qaror va ko‘rsatmalar orqali mustahkamlangan holda olib borishdan iborat bo‘ldi. Arxiv hujjatlariga asoslanadigan bo‘lsak, hammasi bo‘lib 1930-yil O‘zbekiston bo‘yicha 2648 ta xo‘jalik quloqlar sifatida tugatilgan. Ularga qarashli katta qismdagi chorva, mehnat qurollari, yer maydonlari kolxozlarning bo‘linmas fondiga o‘tkazilib, uy-joylari ham musodara qilingan.

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini jamoalashtirish rasman 1932-yili poyoniga yetdi. Shu vaqtga kelib respublikadagi dehqon xo‘jaliklarining 75 foiziga yaqin qismi umumiylashtirilgan sektorga birlashtirildi. Yakka xo‘jalik dehqonlarning bir qismi kolxozlardan tashqarida qoldi, lekin ularga iqtisodiy jihatdan tazyiq o‘tkazish yanada kuchaydi. Yakka xo‘jaliklarga solinadigan qishloq xo‘jalik soliqlari oshirildi, davlatga majburan topshiriladigan mahsulot hajmi esa kolxozlar uchun belgilangan me'yorlarga qaraganda 50 foizga ko‘paytirildi. 1939-yilga kelib esa respublikada yakka xo‘jaliklarga butkul barham berildi. Jamoalashtirish qishloq xo‘jaligini ma'muriy-buyruqbozlik tizimi bilan boshqarishni mustahkamladi, dehqonlarning mustabid davlat asoratiga tushishiga yo‘l ochdi. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini jamoalashtirish davrida 40000 dan ortiq dehqon xo‘jaliklari quloq qilinib, ulardan 31700 tasi qatag‘on qilindi.

Respublikamiz hududida olib borilgan ommaviy jamoalashtirish natijasida qishloq xo‘jaligining asosiy sohalari hisoblangan chorvachilik va dehqonchilikda yuz bergan yutuq va kamchiliklar mavjud. Mintaqamizning tabiiy-geografik holati chorvachilik uchun qulay hisoblanardi, lekin dehqonchilikda tutilgan bir tomonlama yo‘l bu sohaning inqirozga yuz tutishiga sabab bo‘ldi. Dehqonchilikda yerkarning asosiy qismi paxta ekish uchun ajratildi. Bundan ko‘zlangan maqsad esa SSSRning paxta mustaqilligini ta‘minlash edi. 20-yillar davomida SSSR tashqi savdosining asosini paxta tashkil etardi. Chet mamlakatlardan, ayniqsa, AQShdan ko‘p miqdorda paxta sotib olinar edi. SSSR hukumati esa ushbu mahsulotni o‘z hududida yetishtirishni ko‘zlagan edi. O‘rta Osiyo mintaqasi esa bu maqsad uchun juda mos kelardi. Mintaqamizning ob-havosi paxta yetishtirish uchun qulay edi. Bu mintaqada paxta maydonlarini ko‘paytirib, boshqa mahsulotlarga bo‘lgan talabni qondirish uchun Ittifoqning boshqa hududlaridan foydalanish yo‘li ishlab chiqildi. Markaz Turksib temiryo‘lining qurilishi orqali paxta yetishtirishga mo‘ljallangan hududlarni g‘alla bilan ta‘minlash umidida ish tutdi. Paxta mustaqilligi g‘alabasi uchun don mahsulotlari maydonini qisqartirish mumkin degan xulosa bilan 1928-yili paxta maydoni 38, 1929-yili 40, 1930-yili 51, 1931 yili 69,9 foizga yetkazildi. Boshqoli don maydonlari esa 1928 yili 44, 1929 yili 40, 1930-yili 15 foizga qisqartirildi. 1931-yilga kelib paxta maydoni 30900 gektarga ko‘paytirish mo‘ljallandi.

Bu davrda nafaqat sug‘oriladigan yerlar, balki lalmi yerlarda ham paxta ekila boshlandi. 1930-yil paxta ekiladigan lalmi yerlar 850 hektar etib belgilandi, lekin aslida esa 753 hektar yerga paxta ekilgan. Buyruq va ko‘rsatmalarni majburan bajarish bu kabi qo‘sib yozishlar miqdorining ko‘payishiga olib keladi. Bir tomondan soxta kollektivlashtirish, boshqa tomondan paxta mustaqilligi uchun kurash yo‘lida 20-asrning 20-30-yillarda yerlarning asosiy qismida paxta ekildi va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari ekiladigan yerlar qisqarib ketdi. Oqibatda hamma okruglarda don tanqisligi vujudga keldi, kolxozlarda kishi boshiga norma tizimi o‘rnatildi. Chorvachilik sohasida kollektivlashtirish boshlanguncha doimiy o‘sish kuzatilgan, ammo 1929-yilgan boshlab chorvalar soni keskin qisqargan. Bunga ommaviy jamoalashtirishning oddiy aholiga noto‘g‘ri tushuntirilganligi sabab bo‘lgan, natijada 1930-yilning o‘zida 60 ming qoramol so‘yib yuborilgan. 1931-yildan boshlab chorvachilikni avvalgi holiga qaytarish ko‘zda tutildi, ammo buning iloji yo‘q edi. Sababi yem-xashak masalasida muammolar ko‘p edi va buni amalga oshirish uchun mablag‘ yo‘q edi.

SSSR o‘zining 72 yillik umri davomida o‘z aholisini don bilan hech qachon o‘zi taminlay olmadi. Don va oziq-ovqat ehtiyoji chet davlatlardan sotib olish orqali ta’minlandi. Buning ildizi esa SSSR hukumatining dastlabki davrlardagi yer-suv islohoti va qishloq xo‘jaligini jamoalashtirishdagi xato va kamchiliklarga borib taqaladi.

SSSR hukumati qishloq xo‘jaligi sohasida sug‘orish ishlariga yaxshigina e’tibor qaratadi. Sug‘orish tizimini takomillashtirish orqali yerlarni kengaytirib, olinadigan hosilni ham ko‘pytirish maqsadida bir qancha ishlar olib borildi. Davlat tomonidan 7000 rubl 10 ming hektar yangi yerlarni loyihalash va tadqiqot ishlari uchun ajratildi. Birgina Samarqand hududida bir qancha kanallarda beton suv chiqarish tarmog‘i qurish, Samarqand shahridan 8 km uzoqlikda joylashgan Tollig‘ulon suv dambasi qurilishi rejalashtirilgan. Yuqorida aytib o‘tilgan barcha qurilish ishlari 1920330 rublni tashkil etadi. Bu mablag‘ning asosiy qismi davlat budgeti hisobidan edi. Suv inshootlarini qurishda hashar yo‘lidan ham keng ravishda foydalilanilgan bo‘lib, 1924-yilda 800 ming rublik, 1925-yilda tozalash va mayda ta’mirlash ishlari bo‘yicha 941388 rublik, 1926-yilda esa 947040 rublik ish hajmi bajarildi.

Yer-suv islohoti davrida tuzilgan “Qo‘schi” uyushmasining vazifalaridan biri meliorativ shirkatlarni shakillantirish va rivojlantirish edi. 1925-yilda bu shirkatlar uchun 200 ming rubl ajratildi va ularning soni 52 taga yetdi. Suv omborlari qurish loyihalari ham ishlab chiqildi. Birgina Samarqand va Buxoro viloyatlarida suv omborining qurilib ishga tushirilishi natijasida 60 ming hektar yerni sug‘orish imkonini berdi. Katta Farg‘ona kanali qurilishi davom etayotgan bir vaqtda Samarqand viloyat mehnatkashlari ham o‘n kun ichida uzunligi 43 km bo‘lgan Zarafshon kanali qurilishi ishlarini amalga oshirdi. Natijada XX asrning birinchi yarmida nafaqat Zarafshon vohasi miqyosida, balki Farg‘ona vodiysida qurilgan irrigasiya inshootlari yangi dehqonchilik vohalari yuzaga kelishiga olib kelgan. Bu esa shu hudud aholisi kundalik turmush tarzi, mashg‘uloti mazmuniga ta’sir etib, o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyotni shakllantirgan.

Dehqonlarning qattiq mehnati va shijoati tufayli O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida 1935—1937-yillardan boshlab ba’zi yutuqlar qo‘lga kiritildi. Don, sholi, arpa, makka-jo‘xori ishlab chiqarish ko‘paydi. Chorvachilik qishloq xo‘jaligining muhim sohasi bo‘lib qoldi. 1940-yil boshiga kelib qoramollar soni 1934-yildagiga qaraganda bir yarim baravardan ziyodga ko‘paydi. Qishloq ahlining fidokorona mehnati o‘zining natijasini berdi. 1939-yilda yalpi paxta hosili deyarli 1 mln 583 ming tonnaga yetdi, paxta hosildorligi esa hektariga 17,8 sentnerni tashkil etdi. Qishloq xo‘jaligini mustahkamlash, ayniqsa, paxtachilikni rivojlantirish uchun sug‘orish inshootlari qurilishi katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bunday qurilishlarni hashar usulida olib borish odat tusiga kirdi. O‘zbek xalqining jasorati bilan, jumladan, 1939-yil 1-avgust-15-sentabrda Katta Farg‘ona kanali qazildi. Natijada 1937 - 1940-yillar mobaynida O‘zbekistondagi

sug‘oriladigan yerlar maydoni 260 ming gektarga kengaydi. Lekin O‘zbekistonda qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi asosan Markaz sanoatining ehtiyojini qoplashga qaratildi.

Xulosa (Conclusion). Sobiq Ittifoqning yer va suv masalasida olib borgan siyosati boshqa respublikalar qatori O‘zbekistonning tarixiy taqdirida chuqur iz qoldirdi. Ommaviy kollektivlashtirish, paxta monopoliyasining o‘rnatalishi asrlar davomida shakllanib kelgan dehqonchilik an'analariga zarba berdi. Aslida jamoaviy xo‘jalik tuzish soxta, real hayotdan uzilgan edi. Sovet hukumati yakka dehqonni boshqarishdan ko‘ra, ularni jamoaga birlashtirib boshqarishni niyat qilgandi. Biz ommaviy jamoalashtirish jarayonini bir qancha tahlil qildik, lekin ko‘rinib turibdiki, bu mavzu o‘zgacha tadqiqot usullarini talab etadi. Ushbu maqoladan ommaviy jamoalashtirishning zo‘ravonlik bilan olib borilganligini, ma’muriy buyruqbozlikning avj olganligini, quloqlashtirish siyosatining sabab va oqibatlarini, kolxozlar tuzish yakunlanishi bilan dehqonlarning qo‘llab quvvatlanmaganligini, shunday bo‘lsada, qishloq moddiy texnik bazasining oz bo‘lsada shakllanishi va sug‘orish sohasida qilingan bir qancha ijobiy ishlarni ko‘rishimiz mumkin.

Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati

1. Аминова Р.Х. Сплошная коллективизация сельского хозяйства Узбекистана (1930-1932 гг.) - Т.: Узбекистан, 1980.
2. Аминова Р.Х. Коллективизация в Узбекистане: как это было? // коммунист Узбекистана. 1989.
3. Аскаров М. Фарғона водийсида ер-сув ислоҳотининг ўтказилиши ва унинг оқибатлари (1925-1926 йй). Ўзбекистон тарихи. 2012 йил, 2 - сон.
4. Ризаев Т. Сельское хозяйство Узбекистана за 40 лет. -Т.: Госиздат Уз ССР, 1957.
5. Социалистическое сельская хозяйство Узбекистана. - Т.: Узбекистан, 1978.
6. Nazirov B. S, Yaqubova B.T. O‘zbekistonda yer-suv munosabatlari tarixi (qadimgi davrdan hozirgi kunga qadar) T.: “Bekshox print servis”, 2023.
7. Nazarov O. O‘zbekistonda ommaviy jamoalashtirishning o‘tkazilishi va oqibatlari (jarayon va ziddiyatlar) T.: Guliston, 2022.
8. Ўзбекистоннинг янги тарихи. (2-китоб) Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. -Т.: Шарқ, 2000.
9. Orziyev, M. (2021). Амир темур сиёсий фаолияти ва бухоро уламолари. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 8(8).
10. Aymatova, Z. (2023). Properties of the Citizens of the Emirate of Bukhara (End of the 19th and the Beginning of the 20th Century). Центр научных публикаций (buxdu. Uz), 40(40).
11. Yusupova, U. M., & Ayupova, F. M. (2014). Performance Evaluation of proinflammatory cytokines in women using intrauterine contraceptive. Europaische Fachhochschule, (12), 26-27.
12. Yusupova, M. (2022). БУХОРО ВОҲАСИ МАРОСИМЛАРИДА ПИШИРИЛАДИГАН ТАОМЛАР ВА УЛАРНИНГ БУГУНГИ КУНДАГИ АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 21(21).
13. Mirjonovna, Y. B. (2021). The influence of arab caliphate on formation of bukhara urban culture.
14. Bibirajab, Y., & Niginabonu, S. (2024). Historical Geography of Amir Timur State. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 4(1), 7-10.
15. Bibirajab, Y., Jo’rayeva, D., & Ahmadjon, A. (2024). MUSTAQILLIK YILLARIDA TOMORQA XO‘JALIGINING RIVOJLANISHI. Gospodarka i Innowacje., 46, 287-290.
16. Yavmutov, D. S., & Adxamovich, X. X. (2023). YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA TADBIRKORLIKNI QO’LLAB-QUVVATLASHNING ASOSIY YO’NALISHLARI. Uzbek Scholar Journal, 18, 34-39.